

Ona yurti - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№27 (66412)
2003 yil
14 iyul
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

Visola bilan Gulnozaning do'stligiga hammaning havasi keladi. Ular Buxoro shahri, G'ijduvon tumanidagi Fitrat nomli 45-maktabda

ketadi,-deb gapni ilib ketdi Gulnoza,- maktab vaqtida ham doim bir-birimizga yordam beramiz.

Yoz - o'tmoqda - soz!

Buni bilasizmi?


PAZANDA VA ARZANDA QIZLAR

o'qiydilar. 5-sinfda o'qishlariga qaramay, onajonlarining barcha yumushlarini mustaqil bajara oladilar.

-Hozir ta'tilda mazza qilib dam olyapmiz,-deydi Visola,- onamlardan shirin-shirin taomlar pishirishni, uy yig'ishtirishni, kiyim

tikishni o'rganyapman. Bo'sh vaqtimda dugonam Gulnoza bilan yangi o'rgangan pishiriqlarimizni pishirib ko'ramiz. Yaxshi chiqsa, juda xursand bo'lib ketamiz. «Tong yulduzi» gazetasida beriladigan hamma pishirig'u salatlarini ham tayyorlab ko'rishga ulgurdik. O'zimiz uchun alohida «O'zbek milliy taomlari» kitobini ham sotib olganmiz. O'zimizning milliy taomlarga hech bir taom yeta olmaydi. Faqat uni maromiga yetkazib pishira olish kerak.

-Visola bilan birga bo'lsak, vaqtimiz bir zumda o'tib



Visola hamma fanlardan «a'lo»ga o'qiydi. Shuning uchun ham uni sinf boshlig'i qilib saylaganmiz. Ta'tilda badiiy asar o'qishga ham vaqt ajratdik. Chunki kitob o'qisak ongimiz oshadi, fikrlash doiramiz kengayadi.

Qizlar juda ko'p hikoya va latifalar bilarkan. Qanday

hikoyalar o'qiydilar, deb so'raganimda:

-Ularning ko'pi do'stlik haqidagi hikoyalar,-deydi Visola,-dunyoda do'stlikdan go'zal narsa bo'lmasa kerak. Gulnoza bilan urushib qolsak, bir daqiqa ichida yarashib olamiz. Bir zumda yana inoqlashib, boshqa urushmaslikka bir-birimizga so'z beramiz. Urushsak o'zimizga qiyin-da, keyin kimga sirlarimizni aytamiz?

Bu ikki pazanda, ahil va qaqildoq qizaloqlarni doim shunday quvnoq yurishlarini tilab qoldim.

*Dilfuza BAHODIR qizi,
TDPU talabasi.*

Yozgi ta'til boshlanishi bilan ko'pchilik bolalar oromgohlarga borishni istab qolishadi. Ammo bu so'zning qayerdan kelib chiqqanini hamma bolalar ham biladimi?

Oromgoh so'zining ma'nosi vaqtli qarorgoh ekan. Uning ilk ko'rinishlari harbiy tarzda bo'lgan. Harbiy qo'shinlar aholi yashamaydigan joylarni qarorgoh qilib olib, p o d s h o h hukmini

OROMGOH - VAQTLI QARORGOH

kutishgan. Ya'ni, bu vaqtli qarorgohlar asosan, urush rejasi ketayotgan vaqtda tuzilgan.

Bizning yozgi oromgohlarimiz esa 7-15 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari uchun tashkil etiladigan tarbiyaviy sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi.

Yozgi oromgohlar 12 kundan 18-20 kungacha davom etadi. Bu kunlar davomida bolalar turli-tuman tadbirlar, ko'ngilochar o'yinlarning guvohi va ishtirokchisi bo'ladilar. Havo issiq paytda cho'milib, oftobda toblanib, miriqib uxlaydilar. Oromgohda bolalar juda ko'plab do'stlar orttiradilar.

*Aziza HAYDAROVA,
O'zbekiston Milliy Universitetining 1- kurs talabasi.*

Mahallamizda Fotima va Zuhra ismli qizlar

yashashadi. Ular bir-birlariga shunaqangi o'xshashki, gohida hatto ota-onalari ham adashib ketishadi. Mahallamizdagi keksalarni-ku gapirmasa ham bo'ladi. Fotima deganlari Zuhra, Zuhra deganlari Fotima bo'lib chiqaverganidan, «Kimsan qizim, avval o'zingni tanitgin», deydigan bo'lishgan...

Bir kuni ularning shahardan buvasi mehmonga kelibdi. Sevimli nabiralarini tizzasiga olib, shirinliklar bilan siylabdi. Ertasi kuni nabiralarini yetaklab, shaharga jo'nabdi. Turli shirinliklar bilan limmo-lim do'konlarning yonidan o'tib ketishayotganda, Zuhra ulardan olib bering, deya xarxasha qila boshlabdi. Fotima esa singlisining qilg'idan mulzam bo'lib, unga tanbeh beribdi. Ikki qo'lida ikkita muzqaymoq olib kelib ularga uzatarkan, «sening isming nimaydi?», deya ismlarini yana bir bor so'rab olibdi buvasi.

Nabiralarini ko'rgan buvisining quvonganini

SURATMI, SIYRAT?!

MENI BIR KUN HAMMA TANIYDI

Olislarga boqadi ko'zim,
Gohi she'rlar yozaman o'zim,
Do'stlar, sizga bor aytar so'zim,
Meni bir kun hamma taniydi.

Yurt ishq-la yonganda dilim,
Burro-burro bo'lganda tilim,
Kitoblardan o'rganib bilim,
Meni bir kun hamma taniydi!

*Gulchehra KOMILOVA,
Farg'ona viloyati, Bag'dod
tumanidagi 10 - o'rta maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.*

mehmon qilibdi. Zuhra ko'chadan kirishi bilan yugurib borib, dasturxon atrofiga o'tirib olibdi. Fotima esa qo'lini yuvib kelish uchun tashqariga chiqib ketibdi.

-Sen ham qo'lingni yuvib kelgin, ona qizim,- debdi Zuhraning boshini silab buvisi.

-E-e, mening qo'lim toza... U qo'lini yuvmaydi. Bog'chada ham tarbiyachi opamiz yuvib qo'yadilar,-debdi Fotima xijolat bo'lib.

Tushlikdan so'ng Fotima buvisiga qarashibdi, hovlilarni supurib, suv sepibdi. Zuhra esa ko'chada yangi tanishgan dugonalari bilan rosa o'ynabdi.

Endi buvasi ham, buvisi ham ularni bemalol ajrata olishadi. Chunki qizlarning tashqi ko'rinishi o'xshash bo'lgani bilan, ichki olami turlicha-da.

*Malohat TO'XTAYEVA,
Toshkentdagi 116 - maktabning 8 - «B» sinf o'quvchisi.*


ONAJON

Tushlarimga kirasiz ma'yus,
Yoningizga borolmagayman.
Gulbahorim bugun bo'ldi kuz,
Onajonim ko'rolmagayman.
Ona...

U barchani go'dakligidan,
Mehr berib o'stiruvchi zot.
Eshitganda titraydi badan,
Tilga olsak onani bot-bot.
Oh...

Alam bilan yig'layotir dil,
Men onamdan nahot ajraldim.
Onajonim mehringiz bir gul,
Iforini qallda asrardim.

Ona...
Sog'indim onajon men sizni,
Angladim, o'rtandim endi kech.
Hamon izlayapman u izni,
Sizni unutilmam ona hech.
Oh...



OBOD MAHALLA

Kelin ko'cha supurar,
Ayni azon mahalda.
Shuning uchun doimo,
Obod bizning mahalla.

Ariq bo'ylari yalpoz,
Ayni gulbahor palla.
Juda so'lim go'shadir,
Yangrar har uyda yalla.

Yon-atrofdagi bolalar,
Qo'shiq aytar baralla.
Ular guldin, lolalar,
Obod bizning mahalla.

Hasanjon YODGOROV, Farg'ona viloyati,
Buvayda tumani, Beshterak qishlog'i.

MENING BOBOM

Qarisi bor uying parisi bor, deyishgani rost ekan. Bobojonim bilan uyimiz fayzli va osoyishta.

Bobom Muxtor ota Jo'rayev Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Ular jang maydoniga kirganlarida o'n to'qqiz yoshda edilar.

Bizga urush yillari haqida hayajon bilan gapirar ekanlar, bugungi tinchlik, osoyishtalikning qadriga yetmoq kerakligini qayta-qayta ta'kidlaydilar.

Urushdan keyin bobom Forish tumanida chorvachilikni rivojlantirish uchun ko'p mehnat qildilar. Mehnatlari yuqori baholandi.

Ayni kunlarda atrofdagi katta-yu kichik bobojonimni e'zozlaydi. O'z o'rnida bobom ham ularga maslahatlarini ayamaydilar. Men mana shunday jasur, mehnatkash va shirinso'z bobom borligidan faxrlanaman. Bobolar omon bo'lsin!

Maftuna ISAROVA,


Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi Amir Temur nomli 8- o'rta maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi.

GULLAR SHAHRI

Men qadimgi shahar, Buxoroda yashayman. Hammaga ma'lumki, u yerlarga juda ko'p sayyohlar yodgorliklarimizni tomosha qilishga kelishadi. Buxoroning ko'hna yodgorliklari hammani shu vaqtgacha lol qoldirib kelgan. Lekin baribir men Toshkentga kelishga, bu yerdagi ko'p qavatli binolarni ko'rishga anchadan buyon ishtiyoqmand edim. Men bu galgi ta'til kunlarimni Toshkentda o'tkazishga ahd qildim. Toshkentda bizning qarindoshlarimiz juda ko'p. Bundan tashqari, bu yerdan ancha-muncha dugonalar ham orttirganman. Men dugonam Sevara bilan shahar aylangani chiqdim. Yo'l chekkalariga

ekilgan manzarali daraxtlarni, gullarni ko'rib, odamni bahri-dili ochiladi. Buning ustiga bu yil «Obod mahalla» yili bo'lgani uchun hammayoq saranjom-sarishta, xonadonlar atrofi supurilgan. Ko'cha-ko'yda bekorchilarni uchratmaysiz. Hamma ish bilan band. Hatto maktab o'quvchilari ham qo'llariga belkurak olib, daraxtlar atrofiga ishlov berishmoqda. Ha, bu yerda xalqimizning «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar» degan maqoliga barcha amal qilar ekan.

Sitora RAJABOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi Ulug'bek nomli maktabning 5- «A» sinf o'quvchisi.



GULIM

Quyosh kulib boqadi,
Zarrin nurin sochadi.
Gullarim olib bahra,
Bahri-diling ochadi.

Mehr qo'yib sen gulga,
Mangu tursaydi bahor.
Yaxshilarning yo'llari,
Gulga to'lsa har nahor.

Parvarishlab o'stiray,
Niyatinga yetgayman.
Yangi o'quv yilida,
Maktabimga eltgayman.

Gulnoza RAHMAT qizi,
O'zDJTU 1-bosqich talabasi.



ORZULAR OLAMIDA

Har bir inson orzu qilib yashaydi. O'z orzusiga erishish yo'lida tinimsiz izlanadi, mehnat qiladi.

Shular qatori mening ham o'z orzularim bor. Gohida o'qituvchi, gohida jurnalist bo'lishni

xohlayman. Ko'plab jurnalist

opalarimga havas bilan

qarayman. O'zim ham

ba'zan gazeta va

maqolalar yozib turaman.

Qaysi kasbni egallamay, avvalo xalqimga, yurtimga halol xizmat qiladigan inson bo'lib yetishishga harakat qilaman.

Bari tushdek ko'rinar ko'zimga go'yo,
Orzularim qanotida qushdek uchaman,
Meni kutar kelajak, deb atalgan dunyo,
Orzuimga yetgan kunni doim kutaman.

Nazira QAYIPBERGANOVA.

Yaqinda qoraqalpog'istonlik bolalarning gazetasi bo'lgan «Jetkinshek» tomonidan «Obod mahalla

«OBOD MAHALLA - BOLALAR NIGOHIDA»

- bolalar nigohida» nomli tanlov e'lon qilindi.

Tanlovga o'quvchilar tomonidan ko'plab maqolalar topshirildi. Yosh rassomlar o'z mahallalarining rasmini chizishga harakat qilishdi.

Bu tanlovda men ham o'z maqolam bilan ishtirok etdim. Mening maqolam ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Bundan juda ham xursand bo'ldim.

Tanlov bahona ko'plab do'stlar orttirdim. Raya Jumaniyozova, Nargiza Avezova, Svetlana Islomova, Nasibaxon Tojimurodova kabi o'quvchilar menga juda yoqdi.

Bibimaryam XO'JANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi 57- maktabning 9- sinf o'quvchisi.



Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 5 - ixtisoslashtirilgan litsey-maktabning 7 - sinf o'quvchisi
Madina SAIDMURODOVA chizgan rasmini «Sirkdagi tomosha» deb nomlabdi.



Aziz bolajonlar! Hammangizga ma'lumki, yaqinda gazetamizda

«Iqtisod saboqlari» ko'rik-tanlovi g'oliblarining ism-familiyalari e'lon qilindi. Bu tanlovda faol qatnashgan o'quvchilar munosib taqdirlandilar. Turli-tuman viloyatlardan kelgan g'olib o'quvchilar yana qayta test sinovlaridan o'tkazilib, mutloq g'oliblar aniqlandi. Ana shu g'olib bo'lgan tengdoshlaringizdan biri Gulzoda AMIRQULOVA dir. Gulzoda Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridan. Qarshi shahridagi kompyuter texnologiyasi kasb-hunar kollejining 2-bosqich talabasi.

Mutaxassisligi - tikuvchilik. Kollejda «Kamolot» stipendiyasi sohibasi.

Keling, u bilan yana ham yaqindan tanishaylik.

-Gulzoda, o'zingiz haqingizda ma'lumot bersangiz.

-Men Qarshi shahridagi 8- o'rta maktabning 9-sinfini bitirganman. Oilada to'rtta farzandmiz. Men ikkinchi farzandman. Otam huquqshunoslar. Aytmoqchi, mening ham huquqshunos bo'lish niyatim yo'q emas edi. Lekin qiz bola avval qo'lga igna ushlashni yaxshi bilishi kerak-da. Tikuvchilikni bitirgach, huquqshunoslikka ham harakat qilib ko'raman.



- «Iqtisod saboqlari» ko'rik-tanlovida g'olib bo'libsiz, demak, iqtisodga ham qiziqarkansiz-da?

-Ha, iqtisod faniga ham qiziqishim katta. Kollejimizda iqtisodga oid juda ko'p tadbirlar bo'lib turadi. Yaqinda kollejimizda soliq tizimi sohasida «Zukko talaba» deb nomlangan ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Bu tanlovda soliq tizimi va soliqning amaliy joriy etilishi, soliq turlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimining o'rni, ahamiyati haqida test savollari berildi. Men bu tanlovda o'zimning «Hamkorlik» deb nomlangan guruhimizga boshchilik qildim. Bu ko'rik-tanlovda faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdik.

Gazeta orqali tashkil etilgan «Iqtisod saboqlari» ko'rik-tanlovida qatnashish esa juda qiziq bo'ldi. Men gazetani varaqlab o'tirib, tanlov o'tkazilayotganini bilib qoldim. Qarasam, oradan bir-ikkita oldingi sonlardagi savollardan qolib ketibman. Keyin o'tgan sonlarini ham qidirib topib, savollarga javob yoza boshladim.

-Savollarga javob topishda qiynalmadingizmi?

-Albatta qiynaldim. Lekin menga mehribon ustozlarim

yordam qo'llarini cho'zishdi.

Bulardan kollejimizda

hisobotchilik fanidan dars beradigan

ustozimiz Nargiza opa Haydarova yaqindan

yordam berdilar.

H a t t o

ENG MUHIMI BILIM OLISH...

gazetada g'olib o'quvchilarning ro'yxatida o'zinning familiyamni ko'rib qolganimda men bilan birga quvonchimga sherik bo'ldilar va Toshkentga ham birga hamroh bo'lib keldilar.

Suhbatimiz shu yerga kelganida, Gulzodaning ustozlari ham suhbatimizga qo'shildilar:

-Gulzoda kollejimiz tomonidan bir nechta «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlangan. Kollejimizda qanday tadbirlar o'tkazadigan bo'lsak, deyarli hammasiga shu o'quvchimiz ssenariy yozib beradi. O'qishda, tengdoshlariga bo'lgan munosabatida ham o'quvchilardan ajralib turadi. San'at bo'yicha o'tkaziladigan barcha tanlovlarda, bayramlarda maqom yo'nalishida qo'shiq kuylaydi. O'zi mustaqil pianino ham chaladi. O'zim kollejda dars berish bilan birgalikda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining boshlang'ich tashkiloti raisiman. Gulzodaga o'xshagan barcha iqtidorli bolalar bilan ishlash mening zimmamda. Gulzoda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Qarshi shahar kengashi tomonidan «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlangan. Shuningdek, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Qarshi shahar kengashining o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari uchun ta'sis etgan stipendiyasiga sazovor bo'lgani uchun diplom bilan taqdirlangan.

Ustozining bunday iliq so'zlaridan keyin yana Gulzodaga savol berdim.

-Tanlovda ishtirok etib, faxrli o'rinlardan biriga ega bo'libsiz. Bundan faxrlansangiz kerak. Axir bu Respublika bo'yicha o'tkazilgan tanlov-ku.

-Ha, albatta. Bu tanlov boshlangandan buyon qatnashib kelayotgan o'quvchilar ham bor ekan. Mutloq g'olib deb topilgan o'quvchiga televizor va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining sovg'alari topshirildi. Shu o'rinda meni qo'llarim ham tanlov tashkilotchilari ta'sis etilgan sovg'a va «Faxriy yorliq»lar, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan berilgan sovg'alar bilan to'lib ketdi. Ammo muhimi sovg'a emas. Eng muhimi bilimimizni mana shunday tanlovlar orqali charxlanib, yana ham to'lib borishi. Ya'ni, ko'proq bilim olish va olg'a borishdir.

-Bunday yutuqlarga erishishingizga kimlar sababchi deb o'ylaysiz?

-Avvalo ota-onam. Qolaversa, talabchan, mehribon ustozlarim. Agar insonning o'zida

intilish, bir

n i m a g a

q i z i q i s h

bo'lmasa, uni

ming tortqilagan bilan o'sha o'shaligicha qolaveradi. Insonda birinchi navbatda qiziqish, intilish bo'lishi kerak. Shundagina inson o'zi aytgandek yashay oladi, orzulariga erishadi.

-Siz o'qishdan, tikuvchilikdan, qo'shig'u kuylardan ortib yana she'r ham yozar ekansiz. Bularga qanday ulgurasisiz?

-She'rni mashq qila boshlaganimga ancha bo'ldi. Ko'proq Vatan, ota-ona haqida yozishni yaxshi ko'raman.

-She'ringizdan o'qib berasizmi?

-Albatta. Sizlarga «O'zbekim» she'rini o'qib bera qolay.

O'ZBEGIM

Mana, O'zbekiston mustaqil bo'ldi,

Bobolarim orziqib kutgan kun keldi.

Ulug' yoshing muborak bo'lsin o'zbekim,

Ko'zlaring sevinchga to'lsin o'zbekim.

Ozod bo'lding, mana erking qo'lingda,

O'ynab-kulib yurguvchi bolang qo'yingda.

Duo qilib turguvchi bolang yoningda,

Yashnagin, gullagin, O'zbekistonim!

Sen buyuk kelajak sari olg'a bor,

Bu yo'lda ajdodlaring bo'lsin madadkor.

Yovlaringga qarshi jasur o'g'ling bor,

Yashnagin, gullagin, O'zbekistonim!

Gulzoda bilan suhbatimiz shu yerda poyoniga yetdi. Unga kelgusida omadlar, bundan ham ko'proq, ulug'roq yutuqlar tilab, u bilan xayrlashdik.

Mustaqil yurtimizda Gulzodaga o'xshagan bilimga chanqoq o'quvchilarga juda ko'p imtiyozlar yaratilgan. Ana shu imtiyozlardan to'g'ri foydalanib, ko'proq vaqtlarini o'qishga, bilim olishga sarflayotgan bu o'quvchilarga kelgusi ishlarida omadlar tilaymiz. Prezidentimizning ishonchlarini oqlash uchun astoydil kirishayotgan, bilimlarini amalda qo'llayotgan, chet ellarga borib, malakalarini oshirib kelayotgan buyuk yurt farzandlari doimo omon bo'lishsin!

Ozoda TURSUNBOYEVA
suhbatlashdi.

Maktab sahnasi uchun

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Muzaffar Burro: - Ammo tarix o'qituvchimizga o'xshab, ilmiy mudirga yuguraverish ham kuchsizlik alomati-ku!

Qodir: - To'g'ri, to'g'ri, o'quvchilarni tinchitilmasa o'zida ayb, u bo'lsa ilmiy mudirga chaqmacha qarlik qiladi. Shuyam muallim bo'ldi-yu...

O'tkir: - Esingdami, bir marta Saidkarim akani boshlab kiringani?

Kichkina: - Ha... Og'ir gaplar bo'lgan edi.

Qodir: - Senlarga qanday og'ir gap qilgani esimda yo'g'-u ammo menga aytgan gaplari umrbod esimdan chiqmaydi. «Qodir! Sen qanaqa bolasan o'zi? Bahodir akam sho'rlik bir oyoq bilan qaytib, senlarga bir burda non topaman, bolalarimni o'qitaman, deb o'zini o'tga, cho'qqa urib yursa-yu sen ilm orttirish o'rniga muallimga dars o'tgani qo'yamay, to'polon qilib o'tirsang. Otang shu ishingdan rozi bo'ladi, deb o'ylaysanmi?» devdilar. Keyin ko'p o'tmay, dadam olamdan o'tdilar. Mana endi ilm olish yo'q. Endi

SINOV KUNLARI

institutga kirib o'qiyolmayman. Stipendiya bilan kun ko'rib bo'ladimi? Beshta ukam bor. Oyim ishlamaydilar. Baxtinga dadam duradgorlikni o'rgatgan ekanlar. Men institutga kirmayman. Paxsa urish ham, g'isht quyish ham, yog'och yo'nish ham - hammasi qo'limdan keladi. Xudo xohlasa, oilamizni o'zim ko'taraman.

O'tkir: - Iloyim omadingni bersin!

Kichkina: - Iloyim baxtli bo'lg'in, Qodir.

Ortiq: - Xudo xohlasa, sen hammamizdan yaxshi yashab ketasan.

Muzaffar Burro: - Xohlagan qizingni olasan. Senday qo'li gul yigitga lyuboy qiz jon deb tegadi. Mening ishim chatoq. Otam ham yo'q. Urushda halok bo'lganlar. Onam kasal. Mening qo'limda hech qanday hunar yo'q. O'qish bitgach, ertam nima bo'ladi, bilmayman.

Kichkina: - Nega? Sen ham kinomexaniklarga borib yuribsan-ku! Kino qo'yishni bilasan. Gulday kasb. Ham har kuni mazza qilib yangi kino ko'rasan.

Muzaffar Burro: - To'g'ri, kino qo'yishni bilaman.

Miraziz A'ZAM

Kino apparatlarni g'ir-g'ir yurg'izib tashlayman. Ammo bu bilan kun ko'rib bo'larmikin?

Kichkina: - Nega ko'rib bo'lmasin? Dunyodagi hamma kinomexaniklarning oilasi yo'q deb o'ylaysanmi? Kun ko'rish mumkin.

Oqbola keladi:

Oqbola: - Hali dars tayyorlashni boshlamadinglarmi?

O'tkir: - Siz kelishingizni kutib o'tirgandik.

Qodir: - Zabihulla, nega yana kech kelding? Qara, 40 minut kutibmiz seni...

Oqbola: - Tanlagan joylaring bo'lmaydi. Boshqa joyga ko'chamiz.

Kichkina: - Bu yerning nimasi yomon?

Qodir: - Bizga shu yer ma'kul.

O'tkir: - Nega kech kelding? Har qalay bilsak bo'ladimi? Yigirmata kam bir soat katta fursat...

Qodir: - Nega bir o'zing besh kishini kutdirasan?

Oqbola: - Gaplashib o'tiribsanlar-ku mazza qilib.

Muzaffar Burro: - Sizni kutganda og'zimizga tosh olib o'tirishimiz kerakmi?

(Davomi bor).

SADOQQAT

Xitoy xalq ertagi

Qadim zamonda Mao Dafu ismli bir tabib bo'lgan ekan. Kunlarning birida u uzoq qishloqlardan biridagi bemorni davolab, uyiga qaytayotlsa, yo'l

ustida bir bo'ri o'tirganini ko'rib qolibdi. Uning og'zida kichkina xaltacha ham bor ekan. Mao Dafu hayron bo'libdi. Bo'ri Mao Dafuga hamla qilmabdi. Lekin undan hayiqmabdi ham. Dam o'tmay, bo'ri lapanglab kelib, og'zidagi xaltachani Mao Dafuning oldiga qo'yibdi. Keyin o'zi yo'lning chetiga chiqib tiz cho'kkanicha Mao Dafuga qarab turibdi. Mao Dafu ajablanganicha qo'lga xaltachani olibdi. Qarasa, ichida talaygina tilla taqinchoqlar bor emish. Mao Dafuning hayrati ortibdi. Bo'ri shunda

uning

REKLAMASI YO'Q

Qiziqarli film tomosha qilib o'tirib, ketma-ket berilayotgan reklamalardan bezor bo'lgan Nodir oyisiga dedi:

-Uf-f, oyijon, televizorda namuncha reklama ko'p-a?

-Televizor ko'ravermay kitob o'qig'in, reklamasi yo'q,-dedi onasi Nodirga.

OT TURI

Ona tili darsida o'qituvchi Sobirni doskaga chorladi:

-G'aniyev, qani menga otlarning turlarini sanab ber-chi.

-Otlarning turlari juda ko'p: tulpor ot, saman ot, poni oti, lochin...

Mohira YO'LDOSHEVA,
Poytaxtdagi 316 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchisi.



Shunda Mao Dafu bir necha kun avval Nin Tay ismli savdogarni yo'lda tunab ketishgani va uning qotili hali ham topilmagani haqida eshitganini eslabdi.

Mao Dafu boshidan o'tgan voqealarni, zebu ziynatlar uning qo'lga qanday tushib qolganini aytib beribdi. Biroq hokim bu gaplarga ishonmabdi. Uni ayamay savalanglar, deb buyuribdi o'z soqchilariga. Shunda Mao Dafu o'zini jazolashdan avval o'sha bo'rilarini topishni va ulardan so'rashni iltimos qilibdi. Garchi ular odamga o'xshab gapira bilmasa ham o'sha kuni jarohat yegan sherigiga borish kerakligini tushuntirganini aytibdi. Nihoyat hokim ikki qo'riqchi bilan Mao Dafuni toqqa yuboribdi. Borishsa, bo'rilar yo'q emish. Kechgacha kutishibdi ham, biroq bo'rilar qaytmabdi. Orqalariga qaytishdan boshqa choralari qolmabdi. Yo'lning yarmiga kelganlarida ikki bo'riga duch kelishibdi.

Ularning biri o'sha Mao Dafu davolagan

b o s h i d a n

yaralangan

bo'ri ekan.

Mao Dafu

uni tanib,

shunday

debdi:

Sizlarning

bergan sovg'angiz menga ko'p kulfat keltirdi. Shu buyumlar tufayli hokim meni jinoyatchi deb shubha qilyapti. Agar bo'lgan ishning rostini aytmasanglar, hozir qaytib borgach, meni qatl etishadi.

Mao Dafuning qo'llarida kishan borligini ko'rgan bo'rilar g'azab bilan qo'riqchilarga tashlanishibdi. Qo'riqchilar o'zlarini himoya qilish uchun yonlaridan pichoqlarini chiqarishibdi. O'zga chora yo'qligini ko'rgan bo'rilar osmonga qarab ikki- uch marta «uv» tortibdi. Shu zahoti yuzdan ortiq bo'rilar paydo bo'lib, qo'riqchilarning atrofini o'rab olishibdi. Qo'riqchilar sarosimaga tushib qolishibdi. Mao Dafuga tanish bo'lgan ikki bo'ri uning yoniga kelib,

qo'llarini kishandan bo'shatishga harakat qilishibdi. Ularning niyatini payqagan qo'riqchilar kelib tezda Mao Dafuning qo'lidan kishanlarni yechib olishibdi. Ana shundan keyingina bo'rilar tarqalib ketishibdi.

Saroyga qaytib kelishganida qo'riqchilar bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay hokimga aytib berishibdi. Hokim juda hayratga tushibdi. Lekin Mao Dafuni qo'yib yubormabdi. Oradan bir necha kun o'tib hokim ish bilan saroydan tashqariga chiqibdi. Sal o'tmay uning yo'lida bir bo'ri paydo bo'libdi. U bir poy shippak

tishlab turgan emish. Bo'ri shippakni hokim yuradigan yo'lning ustiga keltirib qo'yibdi. Hokim unga e'tibor bermay o'tib ketsa, bo'ri yana shippakni tishlab oldinga yugurib o'tibdi-da yana uning yo'lga

BUVIJONIM

Ko'nglim ravshan tortar buvim so'zidan,
Nur yog'ilib turar yorug' yuzidan,
Mehribonlik arimas hech ko'zidan,
Buvijonim, mehribonim buvijon.

Tunlari mehr-la so'zlaydi ertak,
Matali ezgulik, odob va ahloq,
Men undan o'zimga olaman saboq,
Buvijonim, mehribonim buvijon.

Yaxshilar qo'lida muzaffar zamon,
Buvijonim boshlar nurli yo'l tomon,
Baxtimizga doim bo'lsinlar omon,
Buvijonim, mehribonim buvijon.

Shahnoza BO'RONOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
1 - sonli umumta'lim maktabining
6 - «A» sinf o'quvchisi.

qo'yibdi. Bu holatni ko'rib hokim qaroqchilarga shippakni olishni buyuribdi. Shundan keyingina bo'ri xotirjam bo'lib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Hokim saroyga qaytib kelgach, shippak egasini topishni buyurib, har tomonga chopar yuboribdi. Bir necha kun o'tgandan so'ng, So'ng Sin ismli kimsani ikki bo'ri quvlagani haqidagi xabarni eshitishibdi. U yugurib ketayotganida oyog'idan tushib qolgan shippagini bo'rilar tortib olishgan ekan. Hokim So'ng Sinni o'z huzuriga chaqirtiribdi. Savol- javob qilgach, shippakni unga ko'rsatishibdi. U o'z shippagini tanibdi.

LOGOGRIFLAR

Salobat demakdir u,
Ifodalar g'ururni.
Bosh bo'g'inin tashlasang,
Bo'ladi yog'in turi.

(Viqor)

O'g'il bola ismi u,
«Murod» erur ma'nosi.
Bir bo'g'inin o'chirsang,
Bo'lar davlat organi.
Yana bir harfin ozi,
U - qadim xalqlar sozi.

(Magsud)

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi «Ziyo» maktabi o'quvchisi.
Orifjon MADVALIYEV,



YOMG'IR

Osmonni bulut qoplab,
Momaqaldiroq bo'ldi.
Bir zumda hamma yoqqa,
Chelaklab yomg'ir to'ldi.

Ko'k maysa betin yuvib,
Suvga bir qonib oldi.
Tabiat ham yasanib,
Chiroyli bo'lib qoldi.

Mehridin VALIYEV,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi Sh.Rashidov nomli
8 - maktabning 2 - «G» sinf o'quvchisi.

oldiga kelib, kiyimidan asta tishlabdi y u r », degandek tog'u toshlar tomonga torta boshlabdi. Bo'rining hech qanday yovuz niyati yo'qligini anglagan Mao Dafu uning ortidan ergashibdi. Ular biroz yurishgach, bo'ri uyasiga kelishibdi. Mao Dafu bo'rining uyasida yerda cho'zilib yotgan boshqa bo'rini ko'ribdi. Uning yaqiniga borib, bo'rining boshidan yaralanganini, yarasi og'irligini ko'rgan Mao Dafu o'zini bu yerga nima uchun boshlab kelganini anglabdi. U bo'rining yarasini dastlab yaxshilab yuvib, tozalabdi, keyin malham qo'yibdi. Ishlari tugagach, uyiga qaytmoqchi bo'libdi. Tashqariga chiqqanida allaqachon qorong'u tushib bo'lgan, atrof yo'lni ham ko'rib bo'lmaydigan darajada zimiston ekan. Shunda uni

boshlab kelgan bo'ri uning etagidan tishlab, uyigacha kuzatib qo'yish maqsadida yana yo'l boshlabdi. Ular uch- to'rt chaqirim yurishganda bo'rilar to'dasiga duch kelishibdi. Bo'rilar Mao Dafuga hamla qilishganida u juda qo'rqib ketibdi. Shunda Mao Dafuni kuzatib kelayotgan bo'ri oldinga otilib chiqibdi va bo'rilar o'z tillarida allanima degandek bo'libdi. Shunda bo'rilar hammasi tabibga tegmasdan orqalariga qaytib ketishibdi.

Ko'p o'tmay Mao Dafuning puli qolmabdi. U oziq- ovqat va dori-darmon olish uchun bo'ri bergan zeb-ziynatlarni ishlatishga majbur bo'libdi va ularni sotish niyatida bozorga olib chiqibdi. Shunda ularni xaridorlarning biri tanib qolibdi va ular Nin Tayniki, deb darhol Mao Dafuni ushlab saroyga yetaklabdi.

Xitoy tilidan

Erkin MUROD tarjimasida.

Ta'til qanday o'tyapti, bolakay?

«XUM»GA O'XSHAGAN QISHLOQ

Ixtiyor Ermekov, 9-sinf o'quvchisi:
-Atrofi ulkan tog'lar bilan o'ralib, tog'lar o'rtasidan soy oqqani uchun qishlog'imizni xumga o'xshatishadi. Shuning uchun ham «Xumson» deb atalgan bo'lsa kerak. Daryo, soy, tog' bor joyda albatta toza havo ham ko'p bo'ladi. Mana, ta'tilimda toza havodan nafas olib, mehnat qilish bilan bandman. Qishda yoqish uchun o'tin teraman, sigir va buzoqlarimni boqaman. Bo'sh vaqtimda esa o'zim qiziqqanim uchun oila a'zolarimizning yirtilgan oyoq-kiyimlarini tikib beraman. Buni ko'rgan oyimlar: «Yasha o'g'lim,

qo'ling
gul, hunar
o'rgansang xor
bo'l may san»,
deydilar.

Qishlog'imiz qizlari haqida gapirsam, ular ham ta'tilda tinmaydilar. Uy yumushlarini bajaradilar, ro'zg'or tutishni, kashtachilik, tikuvchilikni o'rganadilar. Sizga yana bir gapni faxrlanib aytishim mumkin: bizning qishloq qizlari juda shirinso'z, mehribon va go'zaldirlar. Ular pishirgan taomni yesangiz, ta'mi og'zingizda qoladi. Shahardagi do'stlarimni ta'tilda dam olishga qishlog'imizga taklif qilaman.

«OSMONDAGI BOLALAR»NI KO'RSAM

Zebo Ismoilova, 7-sinf o'quvchisi:

-Shahardagi bolalarga havasim keladi, nega desangiz barchalarining uylarida issiq va sovuq suv, tabiiy gaz bor. Uylaridan ko'chaga chiqsalar do'kon, dorixonahatto maktablari ham bir qadam. Ro'znomayu oynomalar, hatto sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ni har hafta sotib olaveradilar. Kino, teatr, istirohat bog'larini aytmasam ham bo'ladi. Bizning qishloqda esa suvni uzoqdan tashib kelamiz, tabiiy gaz esa umuman yo'q. Yozda o'choqda, qishda esa balonli gazda ovqat pishiramiz. Shunga qaramay men qishlog'imni yaxshi ko'raman. To'g'ri, bizning qishloqda «G'uncha», «Obi hayot», «Aviator», «Orzu» oromgohlari, «Xumson» va «Kristall» kabi dam olish maskanlari mavjud. Shahardagi tengdoshlarimiz yozda ushbu oromgohlarda dam oladilar. Bizda ham kino zallari bor. Ta'tilda shahardan ataylab biz uchun «Osmondagi bolalar», «Ayol makri», «Xo'roz

qochdi» badiiy filmlarini olib kelib, namoyish etishdi. Xursandligimizdan boshimiz osmonga yetdi. Menga hammasidan ham «Osmondagi bolalar» badiiy filmi yoqdi. Film qahramonlari Lola, Nargiza, Baxtiyorlar o'z rollarini mahorat bilan ijro etishgan. Qani endi ana shu filmni yana ko'rsam.

Kelgusida tikuvchi bo'lmoqchiman. Shuning uchun yozgi ta'tilda tikuvchilikni o'rganyapman.

H e c h

UZOQ BO'LSANG-DA, SOG'INDIM

Iroda Nosirova, 7-sinf o'quvchisi:

Tog'ning tepasida yashash oson emas. Nega desangiz, bizning maktab turaf joyimizdan ancha pastda joylashgan. Maktabga borish uchun qishin-yozin bir chaqirimcha pastga tushib borib kelamiz. Bu yo'ldan bir yugurib ketsangiz, aslo o'zingizni to'xtata olmaysiz. Shuning uchun

chiqdim. She'r yodlashga qiziqqanim uchun Abdulla Oripov, Zulfiya she'rlaridan yodlaganman. Ta'tilda esa Abayning «Yurak» nomli she'ridan 68 misrasini yod oldim:

Alamli yurak, keskir qo'l,
Siyoh zahar, achchiq til.
Neni yozib ketsang shul,
Yoqtirmasang o'zing bil.

Kuyasan, yurak kuyasan,
Kuyganingdan ne foyda?
Dunyoni, neni suyasan,
Umr o'tdi, do'st qayda?

Tezroq
tugab,

ta'til
maktab
boshlansa edi.
Dugonalarim bilan
yana birga maktabga
borishni sog'indim.

TOG' TEPASIDAGI CHAVANDOZ

I l h o m

Obidjon o'g'li,
11-sinf
o'quvchisi:

-Ta'til
boshlandi,
deguncha otga
minib toqqa yo'l
olaman.
Qo'shnilarimning
bir-biriga «Ana,
qishlog'imiz



chavandozi toqqa otlanibdilar», degan gaplarini eshitsam, xursand bo'lib ketaman. Tog'da otni choptirish juda xayfli. Oyog'i toyib ketsa, ot o'zini to'xtata olmaydi. To'g'ri pastga qulaydi. Tog'lar shunday tikka-ki, odamlar ham zo'rg'a tepaga chiqadilar. Chiqib oldim ham deylik, mana endi qo'limga o'roq olib pichan o'rishga tushaman. Pichan qishda mollarning eng sevimli ozuqasi hisoblanadi. Shuning uchun ularning yemishlarini ko'paytirib qo'yaman. Yilning to'rt faslida bemalol sutu qatiq, sariyog'u qaymoq yeyish kimga yoqmaydi, deysiz.

Maktabni bitirib, Harbiy bilim yurtiga o'qishga kirmoqchiman. Oilamni, yurtimni yovlardan asrash, himoya qilish yigitlik burchim, deb hisoblayman.



borishadi. Shuncha qiyinchilikka qaramay, maktabga boramiz. Mana, hozir ta'tildaman. Maktabimni juda-juda sog'indim. Sog'inganimni bildirmaslik uchun uyda ham kitob o'qiyapman. Said Ahmadning «Ufq» romanini, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib», G'afur G'ulomning «Shum bola» asarlarini o'qib

bo'lmaganda
o'zimga chiroyli
ko'ylaklar tikib kiysam,
orzuimga yetgan bo'laman.

QISH G'AMINI YOZDA YE...

Sarvar Ibodov, 11-sinf o'quvchisi:

-Qishlog'imiz bolalari ta'tilda ham bekor yurmaydilar. Donolarimiz bejiz: «Qishning g'amini yozda ye» deyishmagan. Shuning uchun biz uch aka-uka sigir-buzoqlarimizga og'ilxona quryapmiz. Chunki bizda qish juda sovuq keladi. Ishdan charchagan vaqtimizda qo'shni bolalar bilan yig'ilib, «Ugam» daryosida cho'milamiz. O'rtoqlarim hozir toqqa pichan o'rimiga ketganlar. Atrofimizda ko'rib turibsiz, dam olish maskanlari, oromgohlar juda ko'p. Ular soni o'ndan oshiq desam, xato bo'lmaydi. Aksariyat oromgohlarda shaharlik tengdoshlarimiz dam olmoqdalar. Ularga bizchalik qiyin emas-da. Chunki shaharda ish kam. Ba'zida biz ham oromgohlarga borib, u yerdagi bolalar bilan do'st tutinamiz. Ta'tilda esa mehnat qilib charchamaymiz. Zero, mehnat insonni chiniqtiradi, sog'lom va baquvvatligimiz ham shundan bo'lsa kerak.

Sahifani GULYUZ VALIYEVA tayyorladi.

Mana, aziz bolajonlar,
xumsonlik tengdoshlaringiz ta'tilda
qanday dam olayotganliklari bilan
tanishdingiz. Balki Siz ham ta'tilni qanday
o'tkazayotganingiz haqida bizga yozmoqchidirsiz.
Darhol qo'lingizga qog'oz, qalam olib
tahririyatga maktub yo'llang. Xatlaringizni
kutib qolamiz.



O'zTV ijodkorlari

Bolalarga ta'lim-tarbiya bergan insonlar elda azizdir. Ular kelajak doylaridir. Ularning bolalar qalbida undirgan ezgulik urug'lari voyaga yetib, hosilga kiradi. Jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qila boshlaydi.

O'zbekiston televedeniyesining jonkuyarlaridan biri Nelya Alekseyevna Teplyakova ana shunday el ardog'idagi insonlardan biridir. Qirq yillik umrini bolalikka bag'ishlagan inson yosh teletomoshabinlarning bir necha avlodini tarbiyalashga salmoqli hissa qo'shdi.

N.A.Teplyakova tug'ilib ko'z ochgan maskan - Rossiyaning Shimoliy poytaxti. U oilada bosh farzand edi. Ota-onalari baxtiyor, hayot beg'ubordek tuyular edi. Huquqshunos otasi, shifokor onasi o'tgan asrning 30- yillarida avj olgan qatag'onlikdan chetda qolmadilar. Ular barcha xo'rliklarga chidab, sidqidildan xalqqa xizmat qildilar. Yigirma yildan keyin esa aybsiz deb topilib, oqlandilar. Nelya Alekseyevna sabr-bardoshli, har qanday sharoitda ham ruhini tushirmasdan, hammaga kulib boqishlarini ota-onalaridan olgan.

Toshkentga ko'chib kelgan jiyaning to'ng'ich farzandi 80- maktabga qatnab, o'qiy boshladi. Yetuk, ajoyib o'qituvchilar qo'lida tarbiyalanib voyaga yetdi. Oliy ma'lumot olish niyatida O'rta Osiyo Davlat Universitetining filologiya fakultetiga kirib, o'qiy boshladi. O'sha vaqtlarda Toshkent telestudiyasi o'z faoliyatini endigina boshlagan, kunora zangori ekranda bir necha soatlik ko'rsatuvlarni namoyish qilar, xonaki kino odamlarni juda qiziqtirib qo'ygan edi. 1957 yilning boshida Nelya telestudiyaga ishga qabul qilindi. Yangi madaniyat maskanida radiodan, matbuotdan, kinodan o'tgan kishilar hamkorlikda ishlashar edi. Yangi sohada

ham tajriba yetishmas, o'qib- o'rganish uchun zarur adabiyot ham yo'q edi. Muhimi, yoshlarga xos izlanish, tavakkal qilish, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, qaynar buloqday mavjlanib turar edi. Misqollab yig'ilgan tajriba, ijodiy izlanishlar ko'p o'tmay o'z samarasini bera boshladi.

Nelya Alekseyevna bolalar va o'smirlar tahririyatida

muttasil 36 yil mehnat qildi. Bu davr ichida o'zi ham, yosh tomoshabinlari ham o'sib,

ulg'ayib borishdi. Tomoshabinlarning televizion ko'rsatuvlarga talabi kundan-kunga, yildan- yilga oshib boraverdi.

N.A. Teplyakovaning muallif va boshlovchi sifatida tayyorlangan «O'ylab top», «Shamchiroq», «Go'zallik olamiga sayohat», «O'smirlar ijodi», «Tengdosh», «Yoshlar klubi», «Qo'ng'iroqcha» turkum ko'rsatuvlari uzoq yillar zangori ekranni bezab keldi. Ularning har birida tajribali va bilimdon jurnalistlarning bir chimdimdan qalb qo'ri, tafakkuri, fantaziyasi, bolalar ma'naviyatini boyitish tuyg'usi qolgan.

1979 yilning boshidan bolalar va o'smirlar uchun ko'rsatuvlar bosh muharririyati Maorif Vazirligi bilan



hamkorlikda «So'z ketidan so'z kelar» turkumidagi yangi ko'rsatuvni bera boshladi. Bolalarning faol ishtirokida ko'rgazmali, badiiy-estetik vositalardan unumli va o'rinni foydalanish natijasida

ko'rsatuv kichik yoshdagi bolalargagina emas, balki katta yoshdagi tomoshabinlarga ham manzur bo'ldi. «So'z ketidan so'z kelar» televizion mashg'ulotlarini Respublika o'quv-uslubiyot kabineti ijobiy baholadi. Uni Qori-Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqotchilik institutining aspiranti Muhabbat Rahimova mohirlik bilan boshqarib bordi.

Ko'rsatuvlarning qiziqarli chiqishida qo'g'irchoq Katyaning ishtiroki nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Uning ertaklar aytib berishi, bolalar bilan kuylab, raqsga tushishi har bir ko'rsatuvning jozibali

chiqishiga salmoqli hissa qo'shdi. Andijon viloyatining Jalolquduq tumanida yashovchi aka- uka To'raqulovlar shunday deb yozgan edilar: «Salom, hurmatli tahririyat! Biz «So'z ketidan so'z kelar» ko'rsatuvini har gal sabrsizlik bilan kutamiz. Katya aytib bergan ertaklarni jon- dilimiz bilan tinglaymiz. Oyna iy jahonda ko'ringan bolalarga qo'shib, qo'shiqlar aytamiz».

Nelya Alekseyevna ko'rsatuvlarni tayyorlash va



tomoshabinlarga yetkazishda uzoq yillar iste'dodli rejissyor V.N.Raykova, operatorlar V.Panov, J.Vahobovlar bilan hamkorlik qildi. U ijodiy guruhning g'oyaviy va badiiy rahbari edi. Ijodiy guruh tayyorlagan ko'rsatuvni tomosha qilgan muxlislar farzandlari nimalarga qodir ekanligini dildan tuyib, qalblari iftihar tuyg'usi bilan limmo-lim to'lar edi. Ular ekranga olib kelgan ko'rsatuvlarning bu qadar mashhur bo'lib ketishining sababi ham shunda edi. N.A.Teplyakova O'zbekiston televedeniyesida oddiy muharrirlikdan ustoz murabbiy darajasigacha bo'lgan sharafli yo'lni bosib o'tdi. Bilimi va boy tajribasini o'nlab shogirdlarga yetkazdi. 1972 yilda Toshkentda radio va televedeniye xodimlarining malakasini oshirish Ittifoq Instituti filiali ochildi. Tajribali telejurnalist N.A.Teplyakova o'qituvchilikka o'tkazildi. 1980 yilga kelib, filial malaka oshirish kurslariga aylantirildi. 1989 yilda hamkasbimizni kurs rahbari etib tayinlashdi. Hamkasblar, jamoatchilik uning halol va samarali mehnatini e'tirof etib, munosib taqdirladi. U «Xalq Maorifi a'lochisi», «Shavkatli mehnati uchun» medali sohibasidir. Barcha tanishlari va do'stlari uni hurmat qilishadi.

Bearmon inson, ustoz -murabbiy qutlug' 70 yoshga to'ldilar. Ularni muborak yoshlari bilan tabriklab, hamisha ezguliklar hamrohingiz bo'lsin, deymiz.

Mirzo Anvar KARIMOV.

INSONLARNI HIMOYA QILAMAN!



Ha, aziz bolajonlar, Abdullo Hamidullayev poytaxtimizdagi Sobir Rahimov tumani, 46- maktabning 4-sinfini tugatdi.

Bu tirishqoq

tengdoshingizning o'qishlaridan ustozlari mamnun. Ayniqsa, sinf rahbari Yoqutxon opa Dadaxo'jayevaning to'rt yillik mehnatlari samarasi - ushbu sinf bitiruvchilari barcha fanlarni faqat «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'zlashtirishdi. Bu esa ustozning kuyunchakligi, har bir fanni o'quvchilar ongiga chuqur singdira olishi, ta'lim sohasida boy tajribaga ega ekanligidan dalolatdir.

- Ustozlaringizni qaysi fazilatlarini qadrlaysiz, qaysi fanlarga ko'proq qiziqasiz?

- Sinf rahbarimiz Yoqutxon opaning mehribonligi, har birimizni o'z farzandidek avaytlashlari menga juda yoqadi.



Barcha fanlarni yaxshi ko'raman, ayniqsa, ona tili, matematika fanlariga juda qiziqaman. To'rt yil mobaynida bilim olib, Yoqutxon opamizga shunchalik o'rganib qoldikki, endi ulardan ajralgimiz kelmeyapti.

- O'g'il bola qanday bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz? Do'stlaringizning sizga yoqadigan fazilatlarini?

- Avvalo o'zidan kattalarni hurmat qiladigan, odobli bola bo'lishi kerak, deb o'ylayman, ba'zan ko'cha - ko'yda bolalar bir-biri bilan mushtlashishadi, so'kinishadi, bu o'g'il bolalar uchun juda yomon odat.

Rixsivoy, Murod kabi do'stlarim bor. Ularning yaxshi muomalasi, oddiyligi, doimo o'zgalarga yordam berishga intilishini yoqtiraman.

- Qaysi sport turlariga qiziqasiz?

- Shaxmatga qiziqaman, to'garakda ham shug'ullanganman. Futbol o'ynashni ham yaxshi ko'raman.

- Ko'pincha uy ishlarini qiz bolalar bajarishadi. Siz-chi, uy ishlarida oyijoningizga yordamlashasizmi?

«Men katta bo'lsam albatta sudya bo'laman. Hamisha odamlarni himoya qilaman. Buning uchun odobli bola bo'lib, juda ko'p kitoblar o'qishim kerak»- deydi tengdoshingiz Abdullo samimiy jilmayib.



- Rostini aytsam, o'sha qiz bolalar bajaradigan barcha yumushlarni men ham qiziqib bajaraman. Ayniqsa, kiyimlarni chiroyli qilib taxlab, uylarni supurib-sidirib qo'yaman. Idish-tovoqlarni yuvaman, bu ishlarimdan oyijonim mamnun bo'ladi. Oyijonimning aytishlaricha, kichkinaligimda qarindoshlarimiz biznikiga mehmonga kelishib, kiyimlar turgan shkafimizni bexos ochishganda, - Tegmang, kiyimlarning taxini buzib qo'yasiz, degan ekanman.

Pok qalbi misoli, uylari ham pokiza bu tengdoshingizga hamisha omad tilaymiz.

Nuriddin HAYDAROV suhbatlashdi, O'z MU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litsey 1-guruh talabasi.



NEGA?

1. Nega qand qaynoq suvda tezroq eriydi?

2. Nega salqin uyda sut tezroq qaymoq tutadi?
3. Nega Oyda atmosfera yo'q?

4. Bir necha yuz kilometr balandlikdagi atmosfera molekularining tezligi harorati 1000°S bo'lgan havo molekularinikiga teng keladi. Shunday bo'lsa-da, nima uchun uchuvchi kosmik apparatlar erib ketmaydi?

5. Uy haroratida molekularning issiqlik harakat tezligi o'qning uchish tezligiga teng. Unda nega atir uyda ancha sekin tarqaladi?

6. Molekulalar orasida yopishqoqlik kuchi bo'lsa-da, nega singan stakan parchalaridan yana stakanni tiklab bo'lmaydi?

7. Zanglamaydigan metallardan qilingan va ancha vaqt buralmagan gaykani boltidan bo'shatib olish nega qiyinroq kechadi?

Harflar o'yini

T Tyan-Shan tog'ining tagidagi terakzorda traktorchi Tursunali to'rt tonna temirni tortolmasdan traktorini tirillati-i-i-b temirlarga termulib turganekan. - To'rt tonna temirniyam tortolmadimi? Traktoring, - talmovsirabdi Tohir. Tohiram terakzorda to'rg'ay tutib turganekan-da to'rda.

Tortardiyu temirlar **T** terakni tomiriga tiralib turibdi-da, tushuntiribdi Tursunali. Terakni tomiriga tiralib turmaganida tortvorardim.


«Tekkanga tegib, **T** tegmaganni turtadigan» Tohir terakzordagi to'rt tonna temirni to'rt tomonga tarqatib, to'plabdi. To'plangan temirlarni traktorchi Tursunali traktorida torti-i-ib teraklarga tekkizmasdan tashqariga tekislikka to'plagan. To'plangan temirlarni Tohir temirchilarga topshirvorgan. Tortib- tortib tarozida...

T Traktorchi Tursunali taajjublangan- da terakzordagi to'rt tonna temirni teraklarga tekkizmasdan traktorda tortib tashqariga tekislikka to'plagan Tursunali-yu topshiradigan Tohirmi? Tohirni tillab turib traktorni tirillatib, tormozini tortmasini tortvorganekan...

Traktor Tyan-Shan tog'ining toshlariga tegib to'ntarilgan... Tohir to'ntarilgan traktorni tagidan Tursunalini tortib turg'izgan. Turg'izib turib traktordan to'kilgan temirlarniyam temirchilarga topshirvorgan. Traktor to'ntarilsa, temirlar to'kiladi-da. Traktorchi Tursunali tomoshabindek tek turaveribdi. Traktor to'ntarilganda Tursunaliniyam tomi to'ntarilganekan-da...

Qodirjon JALILOV,
Farg'ona viloyati, Quva tumani.

Boshqotirma



1. Zoologiya so'zi qaysi tildan olingan?

- a) grekcha
b) lotincha
c) o'zbekcha

2. Miloddan avvalgi 323 yilda bezgak hurujidan qaysi podshoh vafot etdi?

- a) Iskandar Zulqarnayn
b) Amir Temur
c) Chingizxon

3. Avesto so'zining ma'nosi?

- a) muhtarama ona
b) qat'iy qonunlar
c) Zardusht

4. Bug' molekularining orasi qanday joylashgan?

- a) yaqin
b) uzoq
c) past

5. So'g'd yozuvi miloddan avvalgi nechanchi asrda shakllangan

ARALASH

TEST

edi?

- a) III - V asrda
b) X - V asrda
c) III - II asrda

6. Zoologiya faniga oid dastlabki asar eramizdan oldingi nechanchi asrda va kim tomonidan yozilgan?

- a) V - Levensuk
b) IV - Darvin
c) IV - Arastu

Tuzuvchi:

Mehriniso AVAZOVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi
28 - maktabning
6- «V» sinf o'quvchisi.

Surayyo opangiz Toshkent tumanidagi 22- o'rta maktabda yosh avlodga ta'lim berish bilan birga dalkash she'rlar ham yozadi. Uning betakror satrlarida ona mehri, vatan tuyg'usi, yoshlik zavqi mujassam. Qalb qo'rini she'riy misralarga muhrlayotgan yosh ustozga ijodiy barkamollik tilaymiz!

Ustoz ijodi



ATLASIM

Egningda ochar chiroy,
Shu'la sochar misli oy,
Go'zallikda sirga boy,
Atlasim, milliy libosim.

Hinolangan qo'llarim,
Nurafshondir yo'llarim,
Rango-rangdir gullarim,
Atlasim, milliy libosim.

Maftun etar e'zozim,
O'zbek husniga mosim,
Qadim o'zimga hosim,
Atlasim, milliy libosim.



«PAXTAKOR»

«Paxtakor»ning to'p surarlari,
Mardu maydon gol urarlari,
Betakroridir - mahoratlari,
Baxtiyoru Mirjalollari.

G'oliblarning ruhi qo'llasin,
Sizga omad, zafar yo'llasin.
Parvoz aylang yuksakda uchib,
Butun dunyo kubogin quchib.

Chorlab turar yangi dovonlar,
G'animatdir daqiqa, onlar,
«Paxtakor»ning dovrug'i oshsin,
Muxlislarning quvonchi toshsin.



Surayyo REJAPOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
22- o'rta maktab o'qituvchisi.

CHUNKI...

1. Chunki harorati oshishi bilan diffuziya tezligi ham oshadi. Shuning uchun qaynoq suvda

qand tezroq eriydi.

2. Chunki harorat pasayishi bilan qaymoq (yog') zarralarining broun harakati sustlashadi va sut tezroq qaymoq tutadi.

3. Agar Oyda atmosfera bo'lganida edi, Oy uzoq yillar davomida yo'qolib ketgan bo'lar edi. Chunki Oy atmosferasini tashkil etuvchi molekularlar orasida shundaylari ham bo'lar ediki, ularning issiqlik harakat tezligi Oyning ikkinchi kosmik tezlikni egallashiga va Yer orbitasidan chiqib ketishiga olib kelar edi.

4. Chunki yuqorida atmosfera juda siyrak. Shuning uchun kosmik apparatga kelib urilgan zarralar birgalikda uni eritib yuboradigan energiyani berishga qurbi yetmaydi.

5. Molekularning o'zaro to'qnashuvlari juda ham ko'pligi tufayli, ularning bosib o'tadigan yo'li siniq chiziqlardan iborat bo'lib, juda uzun bo'ladi.

6. Singan stakan bo'laklarini, molekularlar tortish kuchi yetarli darajada bo'ladigan masofagacha yaqinlashtirishning imkoni yo'qligi uchun.

7. Uzoq vaqt bir-biriga yaqin ushlab turilgan gayka va bolt atomlari diffuziya tufayli aralashib, chegarada birikib qoladilar.

Aziza FOZILOVA,

Chirchiq shahridagi 1- o'rta ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy litseyning 11-sinf o'quvchisi.

Bo'sh katakchalarni quyidagi so'zlar bilan to'ldiring:

qasam, insof, ola, oyi, oqsoq, aloqa, motam, yutmoq, idora, ozoda, ost, yoqmoq, nishon, imo, ust, foyda, ishora, ism, qalam, otmoq, shoshma, maqom, yuqori, xon, ishq, arqon, qisqa, osmon.

Tuzuvchi:

Shoira YAXSHIBOYEVA,
Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi 8-maktabning
8- «B» sinf o'quvchisi.

TA' MIRTALAB MAKTAB

yoki qo'shimcha yangi bino o'quvchilarga nasib etarmikan?

- Men Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi 1- o'rta maktabda o'n to'qqiz yildan beri til va adabiyot o'qituvchisi bo'lib ishlab kelaman,- deydi biz bilan suhbatda Bibigul opa To'xtayeva. - O'zim shu maktabning sobiq o'quvchisiman.

O'quv maskanimiz uch qavatli bo'lib, bugungi kunda avariya holatiga kelib qolgan.

O'quv yili tugashi bilan maktabni ta'mirlash bizda ham an'anaga aylanib qolgan. Shunday bo'lsa-da, maktabimiz

ancha yomon ahvolda. Buni tushungan mutasaddilar maktabimiz uchun qo'shimcha ikki qavatli yangi bino qurib berishdi. Biz o'qituvchilar hamda o'quvchilar qanchalik quvonganimizni aytmaysizmi. Ammo... Quvonchimiz uzoqqa cho'zilmadi. Yangi binoning egasi chiqib qoldi.

Maktab uchun ajratilgan yangi qo'shimcha binoni 1999 yildan tuman hokimiyati egalladi.

Maktab 640 o'rinli bo'lib, bugungi kunda 711 nafar o'quvchi ta'lim- tarbiya oladi. Ularga bilim, talabchan ustozlar saboq beradilar. Har bir fandan bepul qo'shimcha soatlar tashkillangan.



O'quvchilarimiz ham bilimga chanoq, intiluvchan bolalar. Fikrimning dalili sifatida shuni aytishim mumkinki, maktabimiz bitiruvchilaridan

65 foizi talabalik baxtiga muyassar bo'ladi.

Maktabimizda fan olimpiada g'oliblari, «Umid nihollari» qatnashchilari bor. Masalan, 11- «B» sinf o'quvchisi Zafar Bahromov Milliy kurash bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. 5- sinf o'quvchisi Isoqulov rasm chizish bo'yicha Respublikada ikkinchi o'rinni olib, biz ustozlarni nihoyatda

xursand qildi.

Ko'plab bilim maskanlari qatori bizning maktabimizning ham o'z homiysi bor. Navoiy «Sardoba» parranda hissadorlik jamiyati maktabni ta'mirlashda katta yordam beradi. Shuningdek, har o'quv yilining yakunida a'lochi, jamoatchi o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Ayni ta'vil vaqtlarida ham maktabimizda o'quvchilar gavjum. Maktabda tashkil etilgan «O'ymakorlik», «Ganchkorlik» to'garaklari bolalar xizmatida. To'garakka rahbarlik qilayotgan Ixtiyor Xolov o'quvchilar bilan tezda til topisha oladi.

Maktabimiz rahbari Shavkat Elmurodov o'quvchi va o'qituvchilar uchun kerakli sharoitni yaratishga harakat qiladi. Biroq, maktabning yildan yilga cho'kib borayotgani barchamizni tashvishlantirayapti.

Mana shunday tashvishlar nafaqat Bibigul opani, balki barcha maktab jamoasini, otionalarni va albatta o'quvchilarni bezovtalantirayotgani ayon.

Umid qilamizki, yangi o'quv yilidan maktab o'quvchilari o'z binosiga, hokimiyat ham o'z binosiga ega bo'ladi.

Feruza SOYIBJON qizi.

Kattalar, e'tibor bering!



Ta'vil kunlari bolajonlarni goh favvoralarining tagida, goh yo'l chekkalarida, goh dam olish uchun qayerlargadir ketayotganida uchratasiz. Eng katta chorralarda yo'lni kesib o'tayotganda svetoforni izlab qolasiz.

"BERKINGAN" SVETOFORLAR

Ammo ularni daraxtlarning katta shoxlari bemalol to'sib turibdi. Buni shahrimizning ko'p joylarida kuzatishimiz mumkin. «Berkinib olgan»



svetofor yashil chiroqlarni ko'rsatish uchun aziz akajonlar katta ko'chalarni bir aylanib chiqishsa, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlagan bo'lishardi.

Mohinur SIROJIDDINOVA, Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 12- o'rta maktab o'quvchisi.

Kunlarning birida avtobusda qiziq, lekin nihoyatda achinarli holatga duch keldim. Keling, bir boshidan so'zlab bersam. Avtobusga 7- 8 yoshlar atrofidagi qiz bilan bir ayol chiqdi. Anchadan so'ng joy bo'shagach, ikkovi ham o'tirib olishdi. Chiptachi yo'lovchilardan yo'l haqqi ola boshladi. Haligi ayolga yaqinlashayotganida birdan ovozi balandlashdi. Keyin bilsam, ayol o'zi uchun pul to'lab, qiziga to'lashdan bosh tortayotgan ekan.

Birdaniga uning «maktabda o'qiydiganlar qanday qilib to'lashsin, oylik aytgani

yo'l haqqi

olishmasa», deb baland ovozda eshitildi. Chiptachi esa battar jahli chiqib, «ota-onasi bor-ku, ular oylik olishadi. Bolani ta'minlash

vazifasi», deb baqirib yubordi va avtobus oynasiga

ularning yopishtirilgan «Nizom»ga

barmog'ini niqtab: «Buni men o'ylab topgan emasman», dedi. Shunday qilib, haqorat zanjiri uzundan- uzun cho'zildi. Avtobusdagi barcha yo'lovchilar odam eshita uyaladigan so'zlarni tinglab borishar edi.

Darhaqiqat, shu mojaroning tirik guvohi bo'layotgan haligi qizchanning qo'rqib ketayotgani shundoqqina bilinib turardi. Qizchanning ahvolini ko'rib o'ylanib qoldim, uning onasi qizi uchun ham chipta olganida shunday gap- so'zlar bo'lmasmidi? Yoki...

Dilnoza AZIMOVA, O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi.

Biz Chilonzor tumanining 5 - mavzesi, 46 - uyida yashaymiz. Uyimizning pastki qavatida «Kafe-bar» bor. U ertalab soat 8.00 dan kechki soat 12.00 gacha ishlaydi. Ko'p qavatli uyimizda juda ko'plab yosh bolali oilalar, keksa otaxonu onaxonlar yashashadi. Pastdan keladigan kuy-qo'shiq sadolari, goh-gohida bo'lib turadigan baqir-chaqirlar oromimizni buzadi. Mayli,

HAYOT TARZI SHU BO'LSA...

ishlashsin, lekin ish soatlarini biroz qisqartirishsa juda yaxshi bo'lardi. Ota-onalarimiz bu masalada ular bilan bir necha bor gaplashib ko'rishdi, foydasi bo'lmadi. Shu maskanda ishlaydigan aka va opalarimiz e'tirozimizni «Tong yulduzi» sahifalarida o'qib, o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishsa edi! Ta'tilda uyda dam olaman, degan bolalar ham bu shovqin-surondan bezor. Ayrimlari esa o'sha baqir-chaqirlar orasida qolib, hayot tarzini o'zgartirib yubormoqda.

Maftuna OO'CHOOROVA, o'quvchi.

Ona yurt - oltin beshig
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
«Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasida ofset usulida bosildi.
Adadi - 33729
Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № 1 - 502
Gazetani Ma'suda IRISNAZAROVA sahifaladi.
Navbatchi: Gulyuz VALIYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75